

CHET EL LINGVOKULTUROLOGIYASINING PAYDO BO'LISHI TARIXI

Ibrohimova Zarnigor Nodirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-kurs doktoranti

Zarijon0611@gmail.com; +998905343708

ORCID ID 0009-0007-7294-0113

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14292414>

Annotatsiya

Ushbu maqolada lingvokulturologiyaning jahon tilshunosligida o'rganilishi va buning tildagi ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, lingvokulturologiyaga oid leksik birliklar va ularning o'rganilishi soha rivoji uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi haqida ham fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, universal atamalar, hissiy kechinmalar, marosimlar, madaniy omil, muloqot.

Tilshunoslikda lingvokulturologiya yo'nalishi XX asrning so'nggi choragida shakllangan bo'lib, "lingvokulturologiya" atamasi tilshunos V.N.Teliya boshchiligidagi Moskva frazeologik maktabida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida tilshunoslikka tatbiq qilingan. Aksariyat tadqiqotlarda lingvokulturologiyaning shakllanishi aslida nemis tilshunosi V. fon Gumboldtga aloqador ekanligi ta'kidlanadi. Chunki u hamisha tilni inson ruhiga bog'lab o'rganish g'oyasini ilgari surgan. Lingvokulturologiya ham tilni madaniyatga bog'lab o'rganadi, madaniyat esa inson tafakkuri, onggi, ma'naviyatiga bog'liq hamma narsa. Bu miqlar, asotirlar, marosim va udumlar, ibora va maqollar, aytimlar, hattoki duo va qarq'ishlar hamdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tilshunoslik tilni ruh faoliyati sifatida tushunish darajasiga yetmaguncha hech qanday masalani yecha olmaydi. Shuning uchun ham V.Gumboldt doimo "xalq ruhi" tushunchasiga murojaat qiladi. "Xalq ruhi" atamasi ostida xalqning ruhiy o'ziga xosligi, intellektual qadriyatlari, milliy madaniyat tushunchalari o'z ifodasini topadi. Boshqacha aytganda, xalqning dunyoqarashini belgilovchi tafakkur tarzi, fani, adabiyoti va san'ati shu xalqning ruhiy dunyosini tashkil qiladi hamda tilida aks etadi.

V.Gumboldt xalq ruhi va tili o'rtasidagi munosabat o'zaro zich bog'langanligini, ularni ayro tasavvur qilib bo'lmasligini bayon qilar ekan, tilni xalq ruhining tashqi voqelanishi, xalq tili uning ruhi, ayni paytda xalq ruhi uning tili ekanini ta'kidlaydi. Ana shu g'oyadan kelib chiqqan holda tilning xilma-xilligi



xalq ruhining xilma-xilligi natijasidir, degan xulosaga keladi, til ruh qonuniyati asosida o'zgarib rivojlanib boradi, deydi.

Tilshunoslikda lingvokulturologiyaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glints, X.Xolg'ts, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyman, A.Vejbitskaya, D.Xaymz singari tilshunoslarning hissasi katta. Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V. Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi.

XX asr oxirlariga kelib Rossiyada, xususan, Moskvada to'rtta lingvomadaniyatshunoslik maktablari shakllandi.

1. Yu.Yu. Stepanov maktabining maqsadi madaniyatning davomiyligini diaxron nuqtai nazardan tasvirlashdir. Yo'nalish turli davrlarda yaratilgan matnlar yordamida, ya'ni tilning faol egasi emas, balki tashqi kuzatuvchisi sifatida ish ko'radi. Bu maktab asoschisi akademik Yu.S. Stepanov qalamiga mansub "Konstanto: Slovar russkoy kulturo" asari lingvokulturologiyaga bag'ishlangan va fanda o'z ahamiyatiga ega. Bu asar rus yozuvchilari, jamiyatning mashhur kishilari asarlari, shuningdek, lug'atlardagi ibora va tushunchalar etimologiyasining tahliliga bag'ishlangan bo'lib, bir necha bor chop etilgan.

2. Arutyunova lingvokulturologiya maktabi. Bu maktabda ham tahlil qilinadigan atamalar faol til egalari tomonidan emas, balki kuzatuvchilar tomonidan o'rganiladi. Arutyunova maktabi tilshunoslari turli zamonlarda yozilgan tarixiy matnlardan olingan universal atamalar va tushunchalarni tahlil etadi. N.D.Arutyunova lingvokulturologiyaga bag'ishlangan "Культурноеконтцепто" asarida shunday deydi: "Odam madaniyat konteksida yashaydi. Unig uchun bu kontekst "ikkinchi voqelik" sanaladi. O'sha odam tomonidan yaratilgan va uning uvhun bilish obyektiga aylangan tabiat chetdan o'rganiladi, madaniyat eesa ichdan. U g'ayriixtiyoriy refleks tufayli idrok etiladi".

3. V.N. Teliya asos solgan lingvokulturologiya maktabi. Bu maktab o'z esa navbatida jahon tilshunosligida Frazologizmlarni lingvomadaniy tahlil qilish Moskva maktabi nomi bilan mashhur. Bu maktab madaniy semantikani til madaniyat egalari orqali o'rganadi, ya'ni real til egalarining nuqtai nazari va dunyoqarashi orqali tilning mohiytai tadqiq qilinadi. Tilshunos V.N. teliya til va til birliklarini o'sha tilning ichidan ichki kuzatuvchi sifatida o'rganish g'oyasini



ilgari suradi. Uning fikricha, lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır.

Teliya o'zining " Rus frazeologiyasi: semantik, pragmatik va lingvomadaniy aspektlar" kitobida yozishicha: "Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigмага xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir."

4. Rossiya Xalqlar do'stligi universitetida V.V.Vorobyev, V.M.Shaklein va boshqalar tomonidan asos solingan lingvomadaniyatshunoslik maktabi. Bu maktabning yo'nalishi ekvivalenti bo'lmagan til birliklari – ya'ni muayyan madaniyatgagina xos bo'lgan, maxsus, faqat so'zlovchining ongida bor va til egalarinig tajribasini mustahkamlovchi so'zlarni o'rganadi. Bu lingvomadaniyatshunoslik maktabi g'oyasi – tillar o'rtasidagi farq madaniyatlar o'rtasidagi farqqa bog'liqdir, ular leksik birliklar va iboralarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunga sabab esa tilning nominative vositalri asosan g'ayrilisoniy voqelik bilan bo'liq. Tilshunos Vorobyovning yozishicha, "Bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuini o'rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta'limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin. Demak lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandır".

Vorobyev, shuningdek, lingvokulturologiya haqida "lingvokulturologiya – sintezlovchi toifadagi kompleks ilm sohasi bo'lib, u madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ta'sirlashuvlarni o'rganadi. Bu jarayonni yagona lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunga ega birliklarning yaxlit tarkibi sifatida mazkur jarayonni zamonaviy nufuzli madaniy ustuvorliklarga (umuminsoniy me'yorlar va qadriyatlar) qaratilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiradi", - deb izohlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda, lingvokulturologiya jahon tilshunosligida jadal rivojlanib borayotgan fan sanaladi. Buning natijas o'laroq, lingvokulturologiyaga



bag'ishlangan qator o'quv qo'llanmalari yaratilgan. Ular orasida eng mashhuri tilshunos V.A.Maslova tomonidan yaratilganidir. Unda lingvokulturologiyaning metodlari, yo'nalishlari, obyekti va predmeti atroflicha yoritilgan, shuningdek, muayyan til birligini lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish bo'yicha misollar berilgan.

Yana bir tilshunos N.F.Alefirenkoning o'n to'rt bobdan iborat lingvokulturologiyaga bag'ishlangan o'quv qo'llanmasi e'tiborga loyiq. Asarda lingvokulturologiyaning tadqiqot metodlari; madaniyat hamda til madaniyati; til, madaniyat va mentallik tushunchalarining o'zaro aloqadorligi; olamning lisoniy manzarasi; so'zning etnomadaniy asos va xususiyatlari, madaniy konsept va semantika; so'zning madaniy-pragmatik ma'nosi kabi dolzarb masalalarga atroflicha ta'rif berilgan. Alefirenko tilni xalq madaniyati, psixologiyasi, falsafasi va tarixini aks ettiruvchi oynaga qiyoslaydi. Manbada lingvokulturologiya fanining obyekti sifatida mazmuni o'rganishga qaratilgan til faoliyat ekanligi qayd qilingan.Olim lingvokulturologiyaga oid qator maqolalar muallifi hamdir . Uning «Linguocultural nature of mentality» nomli maqolasi mentallik tushunchasiga lingvomadaniy aspektdan qaralgan. Maqolada, avvalo, «mentallik», «mentalitet» terminlarining izohi berilgan. Maqolada mentallik haqida shunday fikrlar bor: «Mentallik – dunyoni anglash jarayonida vujudga kelsa, mentalitet – muayyan xalq tomonidan yaratilgan dunyo manzarasi hisoblanadi. Shunday ekan, xalqning mental xususiyatlari tilda o'z aksini topadi. Demak, muayyan millat madaniyati va mental xususiyatlarini o'rganish uchun uning tilini tadqiq etish maqsadga muvofiq". Olim lingvokulturologiyaga shunday ta'rif bergan: "Lingvokulturologiya mentallikni tasvirlashning o'zgacha bir usuli bo'lib, uni dunyo manzarasining maxsus ko'rinishi, deb ta'riflansa bo'ladi".

Tilshunos V.N.Teliya ning fikricha, lingvokulturologiya shaxs va madaniy omillarni uzviylikda tadqiq etuvchi fandır.

G.G.Slishkinning fikricha:" Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i, insondagi madaniyat omiliga yo'naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bolishi inson haqidagi fanning antropologik paradigмага tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi".

Yuqorida nomlari keltirilgan tilshunoslar lingvokulturologiyaning umumiy muammolaridan tortib, eng kichik tushunchalarigacha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirib, tegishli xulosalar berganlar. Xususan, V.A.Maslova bu borada "Lingvokulturologiya xalqning nafaqat qadimiy an'ana va urf -odatlarini, asrlar davomida shakllanib kelayotgan og'zaki ijod namunalari, balki xalq hayoti va



turmush tarzi, madaniyati va urf-odatlarini, umuman, muayyan elat va millatning mental jihatlarini aks ettiruvchi zamonaviy nutq hodisalarini ham tadqiq etishi borasidagi nuqtai nazarlarini bildirgan”.

Adabiyotlarda lingvokulturologiyaning obykti haqida bir qancha bahs-munozaralar ham uchrab qoladi. Jumladan, V.N.Teliyaning fikricha, lingvokulturologiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o’rganadi. V.A.Maslovaga ko’ra, bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o’rganadi. Shuningdek, V.N.Teliya lingvokulturologiya obykti umuminsoniy xarakterga egaligi to’g’risidagi g’oyani ilgari suradi. V.A.Maslova esa muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida tadqiq qilish kerakligini ta’kidlaydi.

Maslovaga ko’ra: "Har qanday ilmiy tadqiqotning aniq metodi o'zining qo'llanish chegarasiga ega. Biroq o'zaro aloqada bo'lgan til va madaniyat shunchalik ko'p qirraliki, ularning tabiati, funksiyalari va genezisini bir metod vositasida bilish mumkin emas. Shuning uchun ham bu sohada bir-birini to'ldiruvchi qator metodlarning qo'llanilishi g'oyat tabiiydir"

Haqiqatan ham tilshunoslikda lingvokulturologiyaga oid ilmiy ishlar qilishda turli xil metodlardan foydalanilib, til va madaniyatning o’zaro aloqasi o’rganiladi, nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinadi. Bunday uslub, metodlarga lingvistik, etnografik, madaniy va ijtimoiy metodlar kiradi.

V. V. Vorobevning yozishicha, “bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo’l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuyini o’rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta’limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta’minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin Demak, lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandir”.

V.M. Shakleyinning fikricha, “Lingvokulturologiya bu – tilshunoslik emas. Shubhasiz, materiallar tadqiqida tilshunoslik va lingvokulturologik yo'nalishlarni birlashtirish samara beradi, biroq lingvokulturologiyani mustaqil fan sifatida shakllanish yo'lga olib chiqmaydi”.

So’nggi yillarda qilingan ilmiy izlanishlarda asosan inson va insoniy tuyg’ular, voqea-hodisalar tadqiq qilinib, ularda faqatgina lingvokulturologik yondashuv emas, balki psixolingvistik, sotsiolingvistik, etnolingvistik, neyrolingvistik tahlil



usullaridan ham keng foydalanilgan. Xususan, tilshunos L.Ye.Vilms “muhabbat” tushunchasining rus va nemis tillaridagi lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganib, bu tushunchaning har ikki tilga xos bo‘lgan birliklarda ifodalanishiga oid turli ijtimoiy va tarixiy omillarni aniqlagan.

N.A.Bagdasarov esa insonning hissiy kechinmalarining og‘zaki ifodasini lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilgan. U ingliz va rus tillarida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi birliklarni tahlil etib, ruhiy holatning ingliz va rus xalqlariga xos noverbal ifoda ko‘rinishlaridan misollar keltirgan va ularni klassifikatsiya qilgan. Shuningdek, tadqiqot ishi etnokulturologiya, etnopsixolingvistika, psixofiziologiya kabi fan tarmoqlari haqidagi mulohazalarni ham o‘z ichiga olgan.

Jahon tilshunosligida ommaviy axborot vositalarida qo‘llanadigan til birliklarini lingvokulturologiya nuqtai nazaridan tahlil qilishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar ham tahsinga loyiq. Xususan, M.A.Strelnikova Rossiya va Amerika muloqot madaniyatida og‘zaki teleintervyu janrining milliy xususiyatlarini tadqiq qilgan va muloqot madaniyatida siyosiy intervyuning ahamiyatini yoritgan. Tadqiqotchi, asosan, ingliz va rus muloqot madaniyatida teleintervyuning o‘ziga xos jihatlari ilmiy fakt va kuzatishlar bilan asoslagan.

Ye.A.Kurchenkova ingliz va rus tillaridagi gazeta e‘lonlari matnining lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etgan.

S.V.Nikitina rus va ingliz tillaridagi sanoatga oid reklamalarda bu ikki xalqqa xos bo‘lgan milliy mentalitet tamoyillarini tahlil qilgan.

F.O.Smirnov elektron aloqaning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganishni maqsad qilib, rus va ingliz tillarida virtual aloqalarning o‘ziga xosliklarini qiyoslagan. Bu ilmiy tadqiqotda elektron muloqot o‘zi nima, uning qanday turlari bor, ularning foydalanuvchiga ta‘siri qanday va qanday psixologik xususiyatlariga ega singari qator savollarga javob berilgan.

Yuqorida nomlari qayd etilgan tilshunoslar olib borgan tadqiqotlar natijasi o‘laroq, hozirda lingvokulturologiyaning bir qancha yo‘nalishlari mavjud:

1. Lingvokulturologiyaning o‘zi madaniy aloqalarni, lingvomadaniy holatlarni, aniq ilmiy izlanishlarni o‘z ichiga oladigan alohida guruh.
2. Diaxronik lingvokulturologiya. Lingvomadaniyatning etnos holatidagi aniq o‘tish vaqtining o‘zgarishlarini o‘rganadi.
3. Qiyosiy lingvokulturologiya. Lingvomadaniyatda paydo bo‘ladigan turli xil etnoslarning ikki tomonlama qiyoslash bilan shug‘ullanadigan yo‘nalish.
4. Tavsifiy lingvokulturologiya. Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar bir muncha kamroq. Biroq ular orasida M.K.Golovanivskaning “Rus tilida



so'zlashuvchilar nuqtai nazarida fransuz mentaliteti" nomli ishi katta ahamiyatga ega. Ishning obyekt sifatida rus va fransuz tillaridagi mavhum tushunchalar bo'lib, ular taqdir, xavf, omad, qalb, ong, tafakkur, g'oya singari so'zlarni o'z ichiga oladi.

5. Lingvokulturologik leksikografiya. Bu yo'nalish lingvoo'lkashunoslik bo'yicha lug'atlarni tuzish bilan shug'ullanadi. Lingvokulturologiyadagi ushbu yo'nalishida bugungi kunda boshqa yo'nalishlarga qaraganda ko'proq ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa soha rivojiga ulkan hissa qo'shmoqda. Xususan, D.G.Maltsevaning lingvoo'lkashunoslik lug'ati 25 bobdan iborat. Unda nemis jamiyatida faol qo'llaniluvchi til birliklari, iqlim xususiyatlari, hayvonot va nabobot olami, mamlakat tarixi, qadimiy urf-odatlar, an'analar; qadimgi afsonalar va rivoyatlar, son va rang belgilari marosimlar, bayramlar; ; nemis pul birligi; o'lchov birliklari, xususan, uzunlik, og'irlik, hajm, yuza; savdo-sotiq ishlari, fan, texnika, tibbiyot; pochta xizmati, shaharlar qurilishi tarixi singari narsa va jarayonlar obyekt qilib tanlab olingan. Shuningdek, lug'at tarkibidagi mavzulashtirilgan ma'lumotlar tarkibiga nemis mentalitetiga xos bo'lgan an'analar, urf -odat va marosim leksemalari, an'anaviy qo'shiqlar va aforizmlar, milliy imo-ishoralar va ularning xarakterli jihatlari va semantikasi kiritilgan. Aytish mumkinki, Maltsevaning ushbu asari lingvokulturologiya sohasida o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda lingvoo'lkashunoslik yo'nalishining asoschilari E.M. Verechagin va V.G.Kostomarovlarning quyidagi so'zlarini ham keltirib o'tishni lozim topdik: "Chet tilini o'rganuvchilar, eng avvalo, odatda kommunikatsiyada ishtirok etishning yana bir usulini egallashga intiladilar. Ammo, tilni o'rganar ekan, inson bir vaqtning o'zida yangi milliy madaniyatga suqilib kiradi, o'rganilayotgan tilda saqlanayotgan ulkan ma'naviy boylikni egallaydi."

XULOSA

Jahon tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar va keltirilgan ilmiy fikrlar shuni anglatadiki, lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida tadqiq etadi, ilmiy asoslaydi. Bu tadqiqotlar sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa shunga yaqin yo'nalishlar doirasida olib boriladi. Bunday ilmiy izlanishlar uchun umumiylik bu - o'zaro chambarchas bog'langan til va madaniyatdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.A. Nurmonov. Tanlangan asarlar . 2jild. Lingvistik ta'limotlar tarixi. B. 26-27.
2. I. Darvishov. LINGVOKULTUROLOGIYA FANIDAN MA`RUZALAR MATNI. Namangan-2021. B. 15.
3. Sh. Usmanova. Lingvokulturologiya. Toshkent/ 2019. B.24.



4. N. Shayxislamov LINGVOKULTUROLOGIYANING FANLAR SISTEMASIDAGI MAQOMI VA UNING ETNOLINGVISTIKA, SOTSIOLINGVISTIKA VA ETNOPSIXOLINGVISTIKA BILAN BOG'LIQLIGI. Academic Research in Educational Sciences Vol. 1 No. 2, 2020 ISSN 2181-1385. B.222.
5. M. Amonova. LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK FANINING TARIXIY VA NAZARIY NEGIZLARI
Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences
VOLUME 1 | ISSUE 4 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021:
5. B. 423 .
6. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. С.38.
7. S. Ahmedova. Lingvokulturologiya yo‘nalishining tilshunoslikda tutgan o‘rni. JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH AND STABILITY (JARS)Volume: 01 Issue: I
SSN: 2181. B. 400.
8. Alefirenko N.F. Linguocultural nature of mentality // Словесность. Культура. 1/2011. С. 161.
9. Maslova. Lingvokulturologiya. М.-Akademiya, 2001. – В. 34.
10. Багдасарова Н.А. Соотношение вербализованных эмоций в русском и английском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. –М.2004. В.61.
11. Kurchenkova Ye.A. Культурно-языковые характеристики текстов газетных объявлений (на материале английской и русской прессы). Волгоград – 2000.С. 188.
12. G. To'lanboyeva.LINGVOKULTUROLOGIYA O'RGANILISH TARIXI. Science and innovation. International scientific journal volume1/ issue6 / 2022 ISSN: 2181-3337. B.542.
13. Смирнов. Ф. О.Национально-культурные особенности электронной коммуникации на английском и русском языках Ярославль- 2004.С.22.
14. A. Odilov.LINGVOKULTUROLOGIYA FANINING YUZAGA KELISH TARIXI. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1601. B.1378.

